

TUPROQQA TURLI USULDA ISHLOV BERIB, YETISHTIRILGAN TAKRORIY EKIN TARIQNING DALA UNUVCHANLIGI VA VEGETATSIYA DAVRININSG BOSHIDAGI KO'CHAT QALINLIGI

Ibragimov Odiljon Olimjonovich

Farg'ona Politexnika inistututi professori q.x.f.d

Sotvoldiyev G'ayratjon Muxammadjon o'g'li

Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti

Malumki xar kanday ekin urug'larini unib chiqishiga xarorat, namlik, tuproq sharoiti o'z tasirini ko'rsatadi. Yana shuni aytib o'tish mumkinki ekinlarni parvarish qilishda tuproq muxim axamiyatga ega. Yaxshi ishlov berilgan tuproq esa mo'l xosil garovidir. Tariq o'simligi xam yaxshi ishlov berilgan tuproq talab qiladi. Yaxshi, malum chuqurlikda va sifatli qilib ishlov berilgan tuproqda urug'lar qiyg'os unib chiqadi.

Tariq issiqsevar o'simlik. Urug'ning unib chiqishi uchun eng past harorat 8-10 °C. Lekin, bunda unib chiqish 15 kungacha, 16-19 °C haroratda esa jami 3 kun davom etishi mumkin Harorat 10 °C dan past va 30 °C dan yuqori bo'lsa. Maysasi to'la unib chiqmaydi. Ekish chuqurligidagi harorat 12-15 °C bo'lganida tariqning maysasi tez kunda to'la ko'karib chiqadi. Sug'oriladigan yerlarda ang'izga takroriy ekin sifatida iyun va iyulning boshlarida ekiladi [1;170-176-b]

Zaxarova Ye. A ning takidlashicha tariqning Volgogradskoe 4 urug'ini ekishdan oldin Albit biologik preparati bilan ishlansa uning urug'larini davomida yillar davomida unuvchanligi 95,2 dan 96,1% gacha bo'ladi. [2;17-b]

A.Omonovning Samarqand viloyatining sug'oriladigan o'tloqi tuproqlarida olib brogan tadqiqotlari natijasida takroriy ekilgan davlat reestriga kiritilgan tariqning "Saratovskaya-853" navidan yuqori va barqaror don hosili olish uchun eng maqbul ekish muddati 20 iyun, ekish me'yori 2,5 mln urug' va kechki muddat 20 iyulda 3,0 mln. dona unuvchan urug' ekanligi aniqlandi.[3;11]

Tajribalarimizda urug'larning unuvchanligi va o'simlik soni xar bir variantda 3 ta nuqtada barcha takrorlanishlar bo'yicha olib borildi.Bzning taxlilarimizdan shu narsa malum bo'ldiki; tariq urug'larining unuvchanligi va unga mos ravishda ko'chat qalinligi yaxshi ishlangan tuproqda yuqori bo'lar ekan.

1-jadval

Takroriy ekin tariq urug'larining dala unuvchanligi va vegetatsiya davrining boshidagi ko'chat qalinligi

2023-yil

Tuproqqa ishlov berish usullari	Variantar	Qaytariqlar bo'yicha 1m ² da unib chiqqan o'simliklar soni, dona			O'rtacha, dona	Qaytariqlar bo'yicha urug'larining unuvchanligi, % dala			O'rtacha, %
		I	II	III		I	II	III	

28-30 sm	1	272	269	269	270	90,67	89,67	89,67	90
	2	273	273	270	272	91	91	90	90,67
18-20 sm	3	264	265	263	264	88	88,33	87,67	88
	4	262	259	262	261	87,33	86,33	87,33	87
10-12 sm	5	252	251	247	257	84	83,67	82,33	83,33
	6	259	258	254	250	86,33	86	84,67	85,67

Tuproqni 28-30 sm chuqurlikda xaydab ishlov berilgan 1 va 2- variantlarimizda urug'larning unuvchanlik o'rtacha 90% dan 90,67% gacha, o'simliklar soni esa mos ravishda 270 donadan 272 donagacha bo'lishi kuzatildi. Tuproqga 18-20 sm chuqurlikda chizel yordamida ishlov berilgan 3 va 4- variantlarimizda urug'larning unuvchanlik o'rtacha 87 % dan 88% gacha, o'simliklar soni esa mos ravishda 261donadan 264 donagacha, 10-12 sm chuqurlikda chisel qolingani 5 va 6-variantlarimizda urug'larning unuvchanlik o'rtacha 83,33% dan 85,6% gacha, o'simliklar soni esa mos ravishda 250 donadan 257 donagacha bo'lishi kuzatildi. Urug'larning unuvchanligi va o'simlik soning 18-20sm va 10-12 sm chuqurlikda chizel yordamida ishlov berilgan variantlarimizda 28-30 sm chuqurlikda xaydov qilingan variantlarga nisbatan kam bo'lishi tuproq xolati yani xaydalgan ang'izdagi somon qoldiqlarining bir qismi tuproq ostiga tushmasdan yuza qatlamga chiqib qolishi buning natijasida tariq urug'lari tuproq bilan aralashmay qolishi va boshqa omillar sabab bo'ldi.

Demak xulosa qilib shuni aytish mumkinki ang'izga yuza ishlov berilgan xolatda tariq urug'lari unuvchanligi chuqur ishlov berib yetishtirilganga nisbatan past bo'lar ekan Shunday ekan demak ang'iz tuprog'iga yaxshi va sifatli ishlov berib urug'larni qiyg'os undirib olgan xolda mo'l xosil olish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Atabayeva X.N. Xudayqulov J.B., "O'simlikshunoslik", "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, Toshkent-2018.
2. Захарова Е. А СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ЭЛЕМЕНТОВ ТЕХНОЛОГИИ ВОЗДЕЛЫВАНИЯ ПРОСА В УСЛОВИЯХ КАШТАНОВЫХ ПОЧВ ВОЛГОГРАДСКОЙ ОБЛАСТИ Волгоград 2019 В-17
3. А.Омонов "Tariq xosildorligiga ekish mudatlari va meyorlarining tasiri" Agro ilm- qishloq va suv xo'jaligi 2022-yil 2-son 11-b
4. WWW. Ziyo, net
5. WWW. library.net